

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.M.Karimov

A.Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanining inglizcha tarjimalarida leksik- stilistik bo’yoq dorlikni saqlash tamoyillari 125

A.A.Shernazarov, X.J.Jamolova

“Boburnoma”dagi forscha baytlarning mualliflari 129

M.B.Rajabova

Alisher Navoiy ijodida marsiya va lavhalar 133

G.S.Qurbanova

Nurali Qobul ijodida ayol ruhiyati tasviri 140

M.K.Mirzoyev

Farzona Xo’jandiylarida motam marosimining badiiy ifodasi 145

M.A.Jo’rayeva

Cho’ponning “Vayronalar orasida” asari janr xususiyatlari 149

L.A.Masharipova

O’zbeginning go’zal urf-odatlari 154

TILSHUNOSLIK**M.Y.Mamajonov, Z.A.Mirzamatova**

Diplomatik munosabatlar ramz va turlarining tasniflari 158

Z.Sh.Pazilova

O’zbek va nemis tillarida to’y bilan bog’liq leksik birliklar 163

M.Y.Xusaynova

O’zbek va ingliz tillarida paxta leksemasining lingvomadaniyatda aks etishi 168

M.M.Mamajanova

Ingliz tili grammatisining retseptiv ko’nikmalarini o’rgatish 172

N.A.Xoshimova, M.R.Nematjonova

Tarjimada realiyalar masalasi 176

X.M.Maripova

Frazeologik birliklarning lingvokulturologiya bilan bog’liqligi 179

N.A.Mansurova

Tilshunoslikda terminologiya masalalari 183

M.R.Komilova

O’zbek tilshunoslida o’zlashma leksemalarning o’rganilishi tarixi 187

J.X.Djamolov

O’zbek tilining davlat tili maqomiga erishish jarayoni 192

Sh.T.Yusupova

Lingvistik interferensiya hodisasining mohiyati xususida 197

M.O.Batirxanova

Somatik frazeologik birliklar tadqiqida “Madaniy kodlar” 201

G.X.Saydullayeva, O.P.Uralova

“TikTok” ijtimoiy tarmoq izohlarida xorijiy so’zlarning izohlarda ishlatalishi 203

M.M.Nurmatova, M.O.Orripova

Nutqiy etiketni shakllantirishda madaniyat va ijtimoiy omillarning o’rni 206

MATEMATIKA**A.K.Yusupova, B.Qurbanov**

Ba’zi biologik jarayonlarni differensial tenglamalar yordamida o’rganish 209

O’.U.Ismailov

Atoqli otlar nazariyasi va semantikasi 214

FIZIKA- TEXNIKA**E.X.Bozorov, M.A.Abdullayeva**

Oliy ta’lim muassasalarida “radiatsiya xavfsizligi” fanini o’qitishda interfaol metoddan foydalanish 218

SOMATIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLER TADQIQIDA “MADANIY KODLAR”**«КУЛЬТУРНЫЕ КОДЫ» В ИЗУЧЕНИИ СОМАТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ****“CULTURAL CODES” IN THE STUDY OF SOMATIC PHRASEOLOGICAL UNITS****Batirxanova Madina Oybekovna¹****¹Batirxanova Madina Oybekovna**

– Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi.

Annotatsiya

Ushbu maqola somatik frazeologik birliklarni madaniy kodlar orqali o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, bu bizga o'zbek, rus va ingлиз tillarida ularning asosiy omillarini ochib berish imkonini beradi. Somatik frazeologizmlarni toifalarga ajratish orqali somatizmlarning turli sohalarda turli madaniyat kodlari bilan qanday ifodalanganligi aniqlandi. Madaniyat kodlari orqali somatizmlarning mohiyatini ochib berish har bir xalqning o'ziga xos xususiyatlari ega ekanligi ko'rsatib berildi.

Аннотация

Данная статья посвящена изучению соматических фразеологизмов через культурные коды, что позволяет выявить их основные факторы в узбекском, русском и английском языках. Категоририуя соматическую фразеологию, мы выяснили, как соматизмы представлены разными культурными кодами в разных областях. Раскрытие природы соматизмов через культурные коды показало, что каждый народ имеет свои особенности.

Abstract

This article focuses on the study of somatic phraseology through cultural codes, which allows you to see the basic factors in Uzbek, Russian and English languages. Categorizing somatic phraseology, my explanations, how somatism is represented by different cultural codes in different areas. The discovery of the nature of somatism through cultural codes showed that every nation has its own characteristics.

Kalit so'zlar: Madaniyat, kod, madaniy kod, somatizm, frazeologiya, lingvokulturologiya, ma'naviy dunyo, frazeologik dunyo.

Ключевые слова: культура, код, культурный код, соматизм, фразеология, лингвокультурология, духовный мир, фразеологический мир.

Key words: Culture, code, cultural code, somatism, phraseology, linguoculturology, spiritual world, phraseological world.

KIRISH

Madaniyat insonning turli sohalardagi hodisalarni o'zaro bog'lash qobiliyatiga ta'sir qiluvchi axborot belgilari tizimiga asoslanadi. Frazeologik birliklarni lingvokulturologik tahlil qilish jarayonida madaniy kod muhim o'rinni tutadi. Bunday tahlil frazeologik birliklar va madaniy kodlarni, ya'ni madaniy ma'noga ega bo'lgan voqeikni o'zaro bog'lash imkonini beradi. Madaniy kod – ramziy ma'no shaklini olgan ma'naviy va madaniy dunyoning belgilar tizimi deb atashimiz mumkin. Madaniy kodning asosiy vazifasi-olimlar madaniy makonning tavsifi va uning shakli ma'naviy va madaniy mavjudotning turli belgilarida aks ettirilgan deb izohlashadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

N.B.Mechkovskaya "til ham madaniyat, ham tabiat hodisasi sifatida mavjud. Shubhasiz, til madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, insoniyatning ijtimoiy tarixidagi eng muhim yutuqlardan biri sanaladi, degan fikrni ilgari suradi [5].

O'zbek tilshunosligida "til va madaniyat" masalalari bilan eng ko'p va xo'p shug'ullangan olim sifatida professor Nizomiddin Mahmudovni ko'rsatish mumkin. Jumladan, olim o'zining "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." nomli maqolasida "til" va "madaniyat" tushunchalari haqida quyidagilarni yozadi:

"Til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to'g'risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va

ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuyi (madaniyat tarixi, o'zbek madaniyati)" demakdir" [4].

Mazkur tadqiqotda bosh, yuz, soch, tish, ko'z, og'iz, qosh, aql, til, miya, quloq kabi bosh qismlaridagi bo'lgan somatik frazeologik birliklar tahlil obyekti sifatida tanlangan. Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi somatik frazeologizmlar madaniy kodlar orqali tahlil qilingan va shu asosda, turli tizimlarga mansub tillarda somatizmlar qo'llanilishining farqlari va o'xshashliklari ko'rib chiqilgan. Madaniy kodlar bo'yicha frazeologizmlarni tasniflash muammosi lingvokulturologiyaning muhim masalasi bo'lganligi tufayli, biz frazeologizmlarni madaniy kodlar orqali tasniflashni taklif qilgan V.V.Lamova tasnifini kengaytirdik. R.Batsuren tadqiqotiga yondashib, biz turli madaniy kodlar orqali somatik frazeologizmlarni tahlil qildik. Shunday qilib, madaniy kodlar bir -biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, millat tafakkuri va mentalitetining mohiyatini ochib berishini ta'rifladik.

Somatik kod boshqa madaniyat kodlari bilan aniq chegaralarining yo'qligi bilan tavsiflanadi. Bir madaniy kodni boshqasi bilan uyg'unligini ifodalab, ularning bir birini to'ldirilgan ma'noda ta'riflanishini kuzatish mumkin, shu asosda somatik kodlarning tasniflari hosil bo'ladi [6].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Somatik frazeologik birliklar ingliz, rus va o'zbek tillarida nihoyatda ko'p. Rus tilida frazeologik birliklarning 25% somatik frazeologizmlardan iborat. P.M.Vayntraub somatik frazeologizmlar miqdori 30 %, V.P.Shubina 15% tashkillashini tasdiqlaydi . F.Vakk esa, inson tanasining tashqi a'zolarini ya'ni bosh, burun, qo'l, yurak, quloq, til kabi leksemalar somatik frazeologik birliklarning 70% tashkil etishi ta'kidlaydi [3].

Bizning tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, inson tanasining "bosh" qismi doirasidagina frazeologik birliklarning deyarli 50% somatik birliklardan iboratdir. A.Blyumning takidlashicha, somatik frazeologik birliklar doirasida qo'l leksemasi eng yeng qo'llanilgan komponentlar ekanligini ta'kidlaydi [1].

XULOSA

Somatik madaniyat kodi, dunyoning til manzarasini modellashtirish, tilning leksik, frazeologik, paremiologik fondida mustahkamlangan. Ma'nolarni bir tildan ikkinchisiga uzatishda somatik madaniy kodi tomonidan ishlataligan tasviriy va ramziy uyg'unlikni saqlab qolish ko'pincha semantik jihatdan qiyinchiliklarga olib keladi. Bunga misol qilib, o'zbek tilida "og'zidan gullab qo'ymoq" somatik FBi, ingliz tilida xam somatik frazeologik ibora orqali "to put one's foot in one's mouth" bo'lsa, rus tilida esa "лягнуть", ya'ni somatik iborasiz ifodalanmoqda.

Ko'rinib turibdiki, somatik frazeologizmlarning katta qismi harakat ifodalovchi somatik madaniy kodiga bag'ishlangan. Keyin keyingi kod sifat ifodalovchi somatik kodidir. Sifat ifodalovchi somatik frazeologik birliklarning nisbati ingliz, rus va o'zbek tillarida deyarli bir xil bo'lib kelmoqda. Somatik frazeologizmlarning madaniy kodlarning o'zaro ta'siriga ko'ra tasniflanishining ayrim guruhlari esa turlicha ekanligi va har qaysi tilda bularning nisbati farqlanishi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Блюм А. Семантические особенности соматической фразеологии /А. Блюм. - М.: ACT-пресс, 2000. - 20c. (1. Blum A. Semantic features of somatic phraseology /A. Blum. - Moscow: AST-press, 2000. - 20c)
2. Вайнтрауб Р.М. О соматической фразеологии в русском языке // Лексические единицы русского языка и их изучение. Ташкент, 1980.- С. 51-55.; Шубина, В.П. Заметки о полевой организации семантической фразеологии в немецком языке // Функциональный синтаксис немецкого языка. – Челябинск, 1977. – С. 86-87. (2.Weintraub R.M. On somatic phraseology in the Russian language // Lexical units of the Russian language and their study. Tashkent, 1980.-P. 51-55.; Shubina, V. P. Remarks on the Field Organization of Semantic Phraseology in German // Functional Syntax of the German Language. - Chelyabinsk, 1977. - С. 86-87.)
3. Вакк Ф. О соматической фразеологии в современном эстонском литературном языке: Автореф. дис. канд. филол.наук. –Таллин, 1964. 23 с.(3. Vakk F. On somatic phraseology in modern Estonian literary language: Ph. -Tallinn, 1964. 23 c.)
4. Махмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб// Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. -№5. –Б. 10.(4. Mahmudov N. In search of ways of perfect study of the language...// Uzbek language and literature. -Tashkent, 2012. -#5. -B. 10.)
5. Мечковская Н. Б. Социальная лингвистика. I. 2 изд. - М., 2000.(5. Mechkovskaya N. B. Social linguistics. I. 2 izd. - M., 2000)
6. Красных В. В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология: Курс лекций. М.: Гноэсис, 2002. (6. Krasnykh V. V. Ethno-psycho-linguistics and linguo-cultural studies: Course lecture. M.: Gnozis, 2002.)